

AXBORIY JAMIYATI, JURNALISTIKA, SIYOSIY JARAYONLAR VA YOSHLAR

Umida Pirnazarova

*Qarshi shahridagi Xalqaro innovatsion
universitet talabasi*

Kirish

Axborot asrida axborotlashayotgan jamiyatda istiqomat qilayapmiz. Bir soʻz bilan bu jamiyatni Axboriy jamiyat deyishadi. Hozirgi kunda axborot qudratli kuch, psixologik qurol. Kimki zarur axborotga ega boʻlsa, u bu zamonda oʻz soʻzini aytadi. Bugun dunyoda peshqadam boʻlish uchun zarur axborotga egalik hamda axborotning kuchidan “unumli” foydalanishning oʻzi kifoya. Albatta turli gʻoya va manfaatlar kurashi tobora kuchayib borayotgan bugungi vaziyatda – tahlikali zamonda yolgʻonni rost, rostni yolgʻon, deb koʻrsatishga urinish, axborot – kommunikatsiya vositalarini oʻzining uzoqni koʻzlaydigan manfaatlariga xizmat qilishga majbur etish, gʻarazli maqsadlar yoʻlida odamlarni, millatlarni bir – biriga qarama – qarshi qoʻyish, ularni hayotdan norozi qilish, turli soxta maʼlumotlarni tarqatish, oʻzgalarni pisand qilmasdan, kuchi etadigan davlatlarga poʻpisa va zoʻravonlik koʻrsatish, hech kim bilan hisoblashmay kuch ishlatish holatlari” koʻzga tashlanayaptiki, bu oʻz navbatida dunyoning axboriy manzarasini belgilab bermoqda.

Muhokama va natijalar. Axborotning ikki xususiyati bor. U bir tomondan inson ongiga taʼsir koʻrsatish, uni maʼlum faoliyatga undash, tasavvurini oʻzgartirish yoki muayyan tomonga yoʻnaltiradigan maʼnaviy ishlab chiqarish mahsulotidir. Ikkinchi tomondan axborot bozorga kelib tushadi, tovarga aylanadi. Har qanday tovar kabi u isteʼmol qiymatiga ega. Axborotga ehtiyoj uni izlashga, qidirib topishga olib keladi.

Fiziklar axborotni moddiyat va quvvat toifasidagi hodisa deyishsa, matematiklar axborot voqelikka mavjud boʻlmagan, shakl bilan ham, mazmun bilan ham bogʻliq boʻlmagan mavhumot, abstrakt miqdordir. Faylasuflar axborotni moddiyatning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida tavsiflashadi. Genetiklar talqinida axborot nasliy belgilar vorisligini taʼminlovchi universal sxemadan iborat. Sotsiologlar fikricha, axborot qanchalik koʻp boʻlsa, jamiyat shunchalik tez rivojlanadi. Rus olimi N.Yudinining nuqtai nazaricha, axborot bu barcha ibtidolarning ibtidosidir. Mashhur sotsiolog Marshal Maklyuenning taʼkidlashicha, voqelik – hech nima, kommunikatsiya esa hamma narsa, sivilizatsiyaning taqdiri axborot etkazib berish tezligiga bogʻliq.

Keling axborotni tavsiflab olsak, oldindan maʼlum boʻlmagan biror narsa, hodisa haqidagi har qanday xabar axborot deb ataladi. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti kitobida axborotni quyidagi izohlashadi: "Axborot, faktlar haqidagi xabardangina iborat boʻlib qolmay, inson ichki ehtiyoji boʻlmish muloqotni taʼminlovchi aloqa qilish amali va fikr almashish jarayoni hamdir. Yaʼni axborot taqdim etilish shaklidan qatʼiy nazar, kishilar, narsalar, faktlar, voqea – hodisalar va jarayonlar haqidagi maʼlumotlardir. Axborot

makoni deganda esa axborot resurslarining, tashkiliy tizimlarning (ma'lumotni saqlash, qayta ishlash, uzatish va tarqatish institutlari) hamda shaxs, davlat va jamiyat faol ishtirok etadigan axborot vositalarining hamjihatligi tushuniladi. Ushbu hamjihatlik Axboriy jamiyat bilan uzviy bog'liqdir. Ya'ni turli xil ma'lumotlarni erkin oladigan, hech qanday to'siqlarsiz o'zlashtiradigan va erkin ommaviy axborot vositalariga ega jamiyat Axboriy jamiyatdir.

Biz uchun axborot – eng ta'sirchan vosita. Axborot uzatishning eng oddiy usullari ham shu qadar katta kuchga egaki, unga hech kim hech narsani qarshi qo'ya olmaydi. Insonning tabiati shundayki, u axborotni qabul qilmasdan, uni tushunishga harakat qilmasdan yasholmaydi. Albatta har birimiz muayyan ma'lumotni ko'ramiz, ilg'aymiz, eshitamiz, xabardor bo'lamiz, o'qiymiz. Gap shundaki, biz doimiy, boringki kechayu kunduz axborotlar ta'sirida – axborotlar olamida istiqomat qilamiz. Vaholanki, zarur, muhim, kerakli axborotlarga ega bo'lish davr talabi. Biz shunchalik, axborotlar oqimi bilan chambarchas bog'lanib ketganmizki, undan ajralib qolishning iloji yo'q.

Axborotlar boshqa mahsulot turlaridan farqli ravishda bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega:

Birinchidan, axborot zahiralari mutlaqo bitmas – tunganmasdir. Jamiyatning rivojlanishi va axborotga bo'lgan talabining ortib borish uni kamaytirmaydi, aksincha o'stiradi.

Ikkinchidan, axborotdan foydalanishning imkoniyati yo'qolmaydi, balki saqlanadi.

Uchinchidan, Axborotni zamonaviy kommunikatsiya vositalari orqali bir zumda istalgan joyga etkazish mumkin. Ahamiyatlisi, bu jarayon ko'p vaqt yoki muayyan mexanizm talab etmaydi.

To'rtinchidan, axborot mazmuni vaqt o'tishi bilan eskirmaydi, tarixiy fakt bo'lib qolaveradi.

Beshinchidan, axborot zahiralari mustaqil emas, faqat boshqa zahiralalar bilan birlashgan holda harakatlanuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi. Axborotning bunday xususiyatlari uning mulk sifatidagi qiymatini oshiradi hamda uni olish, tasarruf etish va turli maqsadlar yo'lida foydalanish istagini kuchaytiradi.

Axborot xurujiga kelsak, u shaxs dunyoqarashi, jamiyat barqarorligi, davlat tinchligiga rahna solishga va jamoatchilik fikri chalg'itishga yo'naltirilgan salbiy ta'sir vositasidir. Misollarga murojaat qilsak, OAV va internet orqali bilib bilinmay 2012 yil 26 dekabrda Maya qabilasi kalendari bo'yicha oxir zamon bo'ladi, degan targ'ibot, ayrim insonlarni ishonishgani, ayni shu kunda uydin tashqariga chiqmay qiyomatni kutishganiga guvohmiz. Demoqchimizki ijobiy va salbiy axborotni farqlash, yaxshisini olish va chalg'ituvchisiga chalg'imaslik, yolg'oniga aldanmaslik uchun o'quvchi yoshlarimizning ongi rivojlangan, qalbi muhofazalangan, mustahkam irodali bo'lishi lozim. Chunki bugun axborot xurujlari butun dunyoni tahlikaga solmoqda. Hozirgi vaqtda ko'z o'ngimizda dunyoning geopolitik, iqtisodiy va ijtimoiy, axborot – kommunikatsiya manzarasida chuqur o'zgarishlar ro'y berayotgan, turli mafkuralar tortishuvi keskin tus olayotgan bir vaziyatda, barchamizga ayonki, fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugun xohlaymizmi yo‘qmi, yoshlarimiz uchun asosiy axborot manbai internet xalqaro axborot tarmog‘i bo‘lib qolayotganini tan olishga majburiy. Bu esa o‘z navbatida Xitoydan 500 million, Rossiyadan 50 million, O‘zbekistondan 11 million (2020 yilgi ma‘lumotga ko‘ra)dan ortiq internetdan foydalanuvchi axborot bosimi ta‘sirida ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Globallashuv jarayonlari “odamlarni ma‘lum bir manfaatlarga xizmat qiladigan, olis – yaqin manbalardan tarqaladigan, turli ma‘no – mazmundagi axborot bosimlarining doimiy ta‘siri ostida yashashga majbur qilmoqda. Bunday holat ayniqsa, globallashuv va jahon integratsiyalashuv kuchaygan davrda yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda. Ma‘lumki globallashuvning asosiy alomatlaridan biri milliy chegaralarning axborot yuzasidan o‘z ahamiyatini yo‘qotib borishidir. Bunda millatni millat, davlatni davlat sifatida saqlanib qolinishida mamlakatning iqtisodiy – siyosiy qudrati bilan bir qatorda uning global axborot maydonidagi o‘z manfaatlarini himoya qilishi, turli axborot xurujlariga qarshi tura olishi, bir so‘z bilan aytganda, axborot xavfsizligini qay darajada ta‘minlaganligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa bu rivojlanib kelayotgan davlatlar uchun dolzarb masaladir. Chunki aynan o‘tish davrida axborot xurujlari, ijtimoiy ongni egallab olishga qaratilgan tajovuzlar, mamlakatning axborot boshqaruvini izdan chiqarishga urinishlar doimiy va xatarli bo‘lib kelgan. Hayotning barcha sohalarida strategik resurs, hal qiluvchi vosita va provard maqsadga aylangan Axborot bugun dunyoni boshqarmoqda, desak mubolag‘a bo‘lmas. Sodda qilib aytganda, o‘z vaqtida axborotga ega bo‘lgan, axborotga ta‘sir qilish imkonini topgan hammadan qudratlidir. Ya‘ni, Axborot bu – kuch, Axborot bu – qudrat, axborot bu – hukmdorlik. Boshqacha qilib aytganda, odamlar ongini boshqarish, ijtimoiy guruh, millat, elat, hattoki butun bir xalqlarni bo‘ysindirish, davlatlarning siyosiy jarayonlariga ta‘sir ko‘rsatish uchun eng universal vosita bu Axborot va kommunikatsion vositalar ekanligini e‘tirof etishni istardik. Albatta axborot makoniga ta‘sir etish dolzarb intilishlardan biriga aylanmoqda. Yanada aniqroq qilib aytganda, bugun kurashning bosh maydoni axborot hududi, asosiy maqsad esa er yoki boylik emas, balki inson ongini egallashdir. Masalaning yana bir ahamiyatli tomonini alohida ta‘kidlash lozim, axborot xavfsizligi milliy xavfsizlikning salmoqli bo‘lagi va jamiyat barqarorligining muhim omillaridir biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, axborotni saqlash, qayta ishlash va uzatish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yilishi, kompyuter tarmoqlari orqali axborotni qabul qilib olish va uzatishda aloqa vositalaridan foydalanishning keng joriy etilishi hamda axborotlashtirishning jadal taraqqiyoti axborot uzatish tizimlarini, xususan axborotlarni tasodifiy yoki oldindan ko‘zlangan tahdidlardan, ruxsat etilmagan foydalanishlardan, o‘chirib tashlashdan saqlash yoki himoyalangan axborotlarni modifikatsiya qilish, ya‘ni axborot xavfsizligini ta‘minlash muammosini keltirib chiqardi. Shuning uchun ham axborot xavfsizligi, avvalo axborot texnologiyalari tizimlarini xavfsizligi, muayyan shaxs, tashkilot yoki davlat idorasiga tegishli axborotlarning daxlsizligi, ya‘ni ma‘lumotlar bazasidagi axborotlarning kompyuter viruslari hamda turli xurujlardan himoya qilinganligi bilan bog‘liq. Demoqchimizki, axborot xavfsizligi deganda dastlab axborot jarayonining axborot sohasi ob‘ektlariga ularni yo‘q qilish, to‘shish, chalkashtirish, tuzatish, tanishtirish maqsadida

muayyan tasodifiy va ataylab qilinadigan ta'sirlardan va boshqa ruxsat etilmagan harakatlardan muhofaza qilinganlik holati tushuniladi.

Biroq ayni paytda axborot sohasiga ta'sir etishi va axborot xavfsizligiga tahdid solishi mumkin bo'lgan manbalar faqat axborot texnologiyalari bilan bog'liq emas. Axborot texnologiyalari va axborot menejmenti yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar o'zidagi bu ustunlikdan ijtimoiy ongga ta'sir etish yo'lida foydalanishdan manfaatdor. Bunday harakatlardan ko'zlangan maqsad informatsion, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va harbiy ekspansiyadan iborat bo'lib, xalqaro huquq me'yorlari bilan cheklanmagan zamonaviy qurol turi –axborotdan foydalanishni nazarda tutadi.

Bugungi kunda har qanday axborot yashin tezligida dunyoning istagan chekkasiga etib borishi, millionlab odamlar undan bir zumda xabar topishi oddiy holdir. Bunday qulaylikning xavfli tomonlari borligini ham e'tibordan soqit qilmaylik. Sir emaski, ba'zan beozorgina bo'lib tuyulgan musiqa, oddiygina multfilm yoki reklama lavhasi orqali ma'lum bir mafkuraviy maqsadlar va intilishlar ifodalanadi.

Avvalo axborot xavfsizligi sohasidagi himoyaga muhtoj asosiy ob'ektlarni belgilab olsak, bu birinchi navbatda ijtimoiy ongdir. Ijtimoiy ong doimiy ravishda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalari hamda turli axborot manbalari ta'sirida bo'lishi bilan xususiyatli. Bundan tashqari omma birgina elektorat sifatida cheklanmaydi. Ya'ni ijtimoiy ongga hokimiyat uchun kurash olib borayotgan doiralardan tashqari ham ko'plab ta'sir o'tkazishni istovchi kuchlar mavjud.

Axborot tizimining ijtimoiy ongdan boshqa ob'ektlari quyidagilardir:

1.Siyosiy qarorlarni qabul qilish tizimi. Mazkur sohada ko'p narsa vaqtida etkazilgan va ishonchli axborotga bog'liq.

2.Jamoatchilik fikrini shakllantirish tizimi.

3.Saqlash shakllari qanday bo'lishidan qat'iy nazar, davlat siri, olish cheklangan tijorat siri va boshqa oshkor qilib bo'lmaydigan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborot mahsulotlari.

4.Har xil daraja va ko'rsatkichli axborot tizimlarini o'z ichiga olgan, axborot mahsulotlarini qayta ishlash, tarqatish, ulardan foydalanish tizimlari, axborot resurslari, axborot texnologiyalari.

5.Axborot yig'ish, qayta ishlash, saqlash va uzatishning tartib va jarayonlari.

6.Fuqarolar, yuridik shaxslar va davlatning axborot olish, tarqatish va foydalanish, yashirin axborotlarni hamda intellektual mulkni himoya qilish huquqi.

7.Axborotni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish, saqlash, uzatish markazlarini, vositalarini, texnologiyalarini, jumladan axborot almashish tarmoqlari ish faoliyatini ta'minlash mexanizmlari.

Axborot xavfsizligiga tahdid manbalari, ya'ni xurujlar oldindan ko'zlangan bo'lishi mumkin. Dastur ta'minotidagi kamchiliklar, texnik vositalarning nosozligi, malakaning etishmasligi yoki foydalanuvchining xatolari tasodifiy tahdidlar hisoblanadi. Oldindan ko'zlangan tahdidlar esa axborot zahiralarga zarar etkazish maqsadida atayin amalga

oshiriladi. Ular faol (aktiv) va nafaol (passiv) turlarga bo‘linadi. Nafaol tahdidlarga axborot zahiralaridan ularning vazifalariga ta’sir ko‘rsatmagan holda ruxsat berilmagan foydalanishga bo‘lgan intilishlar kiradi. Texnik va dastur vositalariga, axborot zahiralariga ta’sir qilish yo‘li bilan tizimning mo‘tadil faoliyatini buzishga qaratilgan tahdidlar faol tahdidlar sanaladi.

Axborot xavfsizligiga tahdid manbalari ichki va tashqi manbalarga bo‘linadi. Axborot xavfsizligining dolzarb muammoga aylanishiga asosan tashqi tahdidlar sababdir. Chunki bugun zamonaviy dunyoga egalik qilish uchun kurashning asosiy vositasi sifatida Axborot tilga olinmoqda. Bunday vaziyatda axborot texnologiyalari va axborot boshqaruvi yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlar o‘zidagi bu ustunlikdan ijtimoiy ongga ta’sir ko‘rsatish yo‘lida foydalanishdan tom ma’noda manfaatdor hisoblanadi.

Axborot xavfsizligiga tahdidning tashqi manbalari quyidagilardan iborat:

- 1.Chet el josuslik va maxsus xizmatlarining faoliyati.
- 2.Chet el ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari.
- 3.Xalqaro guruhlar, tuzilmalar va alohida shaxslarning noqonuniy harakatlari.
- 4.Axborot tarqatish va foydalanish bo‘yicha xorijiy davlatlar siyosatining amalga oshirilishi.
- 5.Tabiiy ofatlar va fojialar.

Axborot xavfsizligiga tahdidning ichki manbalari esa quyidagilar:

- 1.Siyosiy, iqtisodiy va jamoat tashkilotlarining alohida shaxslar va guruhlarining axborot to‘plash, tarqatish va foydalanish sohasidagi noqonuniy faoliyatlari.
- 2.Axborot sohasida fuqarolar va tashkilotlar huquqlarining buzilishiga olib keluvchi davlat tuzilmalarining qonuniy harakatlari va ko‘zda tutilmagan xatolari.
- 3.Axborot tizimlarining dasturiy – texnik vositalarining bazaviy texnologiyalarini yaratish, sinash va ishlab chiqarish bo‘yicha mahalliy sanoatning talab darajasida emasligi.

Albatta axborot makonining vujudga kelishi nafaqat uni bo‘lib olish, balki unda kechayotgan jarayonlarni nazorat qilish va boshqarishni xohlovchi tomonlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Bu guruhlarining kurash vositasi ham aynan axborot qurolidir. Tahlilchilar axborot quroli deganda, odamlarga ruhiy ta’sir ko‘rsatadigan va ularning ustidan nazorat qilish imkonini beruvchi vositalarni, kompyuter viruslarini, mantiqiy bomba, telekommunikatsiya tarmog‘ida axborot almashinuvini bostiruvchi moslamalarni, davlat va harbiy sohalarni boshqarishda axborotlarni sohtalashtirish kabi harakatlarni nazarda tutishadi.

Axborot xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning asosiy ta’sir vositasi bir martalik tashviqot aksiyalari, uzoq muddatli targ‘ibot kompaniyalari, mafkuraviy tazyiq, madaniy ekspansiya, axborot blokadasini kabi ruhiy – informatsion ta’sir vositalari hisoblanadi.

Axborot xurujlari, asosan quyidagi usullar orqali amalga oshiriladi:

- 1.Diskreditatsiya – voqea ahamiyatini pasaytirib ko‘rsatish.
- 2.Dezinformatsiya – axborotning ma’nosini o‘zgartirgan holda taqdim etish.
- 3.Tuhmat.
- 4.E’tiborni chalg‘itish.
- 5.Faktlarni manfaat uchun buzib talqin qilish.

Internet xalqaro axborot tarmog‘i bugungi kunda axborot xurujining makoniga aylangani hech kimga sir emas. Albatta “o‘rgimchak to‘ri”da giyohvandlik, narkobiznes, ichkilikbozlik, terrorchilik, aqidaparastlik, zo‘ravonlik, ma‘naviy buzuqlik, tubanlik, savodsizlik, madaniyatsizlik, yovuzlik bilan yo‘g‘rilgan saytlar, ur – yiqit, vahshiylik, jangarilik mazmunidagi filmlar, kompyuter o‘yinlari istagancha topiladi. Virtual olamda axborot xurujining nishoniga yoki kimnidir “o‘lja”siga aylanmaslik uchun yoshlarimiz hushyor, ogoh va bilimdon bo‘lishi ayni muddao. Zotan birinchi prezidentimiz ta’kidlaganidek, “internet bu – katta bir do‘kon. Do‘konga borganida odam xohlagan molini sotib oladi. Internetni ham shunday bir bozor, ya’ni axborot bozori deb tushunish kerak. Binobarin, o‘tib kelayotgan avlodni shunday tarbiyalash kerakki, ular internet bozoriga kirganda, faqat o‘zi uchun zarur narsani olsin, internetdagi axborotdan foydalanish madaniyatini o‘rgansin”.

Xulosa

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, ruhiy – informatsion xuruj ommaviy axborot va global kommunikatsiya vositalari orqali amalga oshiriladi hamda davlatning ichki siyosatiga ishonchlik o‘yg‘otish, ichki ijtimoiy – siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, muholif kayfiyatlarni qo‘zg‘otish, hattoki isyonga undash kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shimoliy Afrika, MDH va Yaqin Sharq mamlakatlarida mojarolarga, taraqqiyotni izdan chiqishiga, shaharlarni vayron bo‘lishiga olib, kelgan “Arab bahori” va rangli inqiloblarda tashqi kuchlarning bunday axborot xurujlaridan “unumli” foydalanganligini aytib o‘tishning hojati bo‘lmas kerak. Albatta bugun ham yolg‘on va soxta axborotlar tarqatib, insonlarni chalg‘itishga urinadigan g‘arazgo‘y kuchlar kechagidan-da faollashganini hisobga olsak, zamon xalqimiz, ayniqsa yoshlarimizni irodasini mustahkam, iymonini baquvvat, zamonaviy bilim va kasb – hunar egalari etib tarbiyalashni va ularda Mafkuraviy immunitet hamda Axborotdan foydalanish madaniyatini shakllantirishni taqozo etadi.

Muxtasar qilib aytganda, axborot maydonida ruhiy – informatsion ta’sir vositalarini cheklash, ta’qiqlash va nazorat qilishga demokratiyaning talablari yo‘l qo‘ymaydi. Ya’ni axborot olamida qandaydir devor o‘rnatish, o‘z qobig‘iga o‘ralib, mahdudlikka yuz tutish yo‘li bizga ma’qul emas. Bugungi globallashtirish zamonida, internet asrida axborot uchun hech qanday chegara yo‘qligi, bu sohada qandaydir “temir devor” qurib bo‘lmasligini kimgadir tushuntirib, izohlab o‘ttirishning hojati yo‘q. Ammo bugun yon – atrofimizda, uzoq – yaqin mintaqalarda yuz berayotgan voqealarni inobatga oladigan bo‘lsak, hali ongi, hayotiy qarashlari shakllanib ulgurmagani yoshlarni chalg‘itishga qaratilgan g‘arazli kuchlar ham xalqaro axborot tarmog‘i imkoniyatlaridan o‘z manfaatlari yo‘lida foydalanishga urinayotgani va bunday intilishlarning qanday salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini e’tibordan soqit qilib bo‘lmaydi. Albatta jahon axborot makonidagi mislsiz integratsiya jarayonlari bugungi yuksak taraqqiyot uchun beqiyos imkoniyatlar ochib berayotganini e’tirof etgan holda, axborot oqimi orqali, afsuski, turli buzg‘unchi g‘oyalar, “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlari ham hayotimizga kirib kelayotganini inkor etib bo‘lmaydi. Ular yoshlarimizning ongi va ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotgani, ma‘naviy qadriyatlarimizga, avlodlar

o‘rtasidagi vorisiylik an‘analariga bepisand qarash kabi holatlar ham yon – atrofimizda uchrab turishi barchamizni tashvishga solmasdan qo‘ymaydi.

Shu o‘rinda bir fikr yana bir bor ta’kidlab aytishga to‘g‘ri keladi: ma’naviyatni asrash – insonni, avvalo yosh avlodimizni, kelajagimizni asrash demakdir. Shunday ekan, bir qarashda ko‘zga yaqqol tashlanmaydigan bunday xavf – xatarlar qarshi kurashishni hayotning o‘zi talab etmoqda. Bizningcha, axborot xurujlariga qarshi turish va turli ruhiy – informatsion ta’sirlarga tushmaslik uchun fuqarolarimizning bilimi, tahlil qilish va oqni qoradan farqlash qobiliyati rivojlangan bo‘lishi lozim. Toki har bir shaxs “bu qanday axborot, xolis yoki noxolis, kimning g‘arazli manfaatiga xizmat qiladi?” kabi savollarga javob topa olsin. Mustaqil fikrlaydigan, oqni qoradan, do‘stni dushmanidan ajratishga qodir, bizning qanday boy tarix va merosga ega ekanimizni anglab yashaydigan, imon – e’tiqodli, milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan insonlar axborotlar xurujlari “to‘riga” ilinmaydi, deb o‘ylaymiz.

Aydarbek Tulepov “Internetdagi tahdidlardan himoya” kitobida buning uchun “ezgulik va taraqqiyotga xizmat qiluvchi ma’lumotlarni axborot dunyosidan saralab olishdagi bilimlar, qobiliyat va malakani o‘zida mujassam etuvchi – Axborot iste’moli madaniyatini shakllantirishni taklif etadi. Ayrim tadqiqotchilar esa yosh avlod media makonga kirganda, faqat o‘zi uchun zarur va foydali ma’lumotlarni olishi uchun “Axborot immuniteti” ga ega bo‘lishi kerak, deb hisoblashadi. Nima bo‘lgan taqdirda ham, yoshlarimizni ajborot xurujlaridan himoya qilish, buning uchun yosh avlodni bilim bilan qurollantirish, yuksak ma’naviyatli va mafkurasi pishiq bo‘lishiga erishish kechiktirib bo‘lmas vazifamizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.-280 b.
2. Axborot xavfsizligi: echim va muammolar. Ma’ruzalar to‘plami. T.: Iste’dod, 2004.- 200 b.
3. Ernazarov Q.T., Mamatova Yo.M., Toshaliyev I.E., Ernazarov Sh.Q. Reportyorlik faoliyatining nazariyasi va amaliyoti. T.: Universitet, 2002.-240 b.
4. Bosma ommaviy axborot vositalarida media – biznesni yuritish asoslari. Amaliy qo‘llanma. T.: Norma, 2008. -160 b.
5. Qosimova N, Toshpo‘latova N, Shofayziyeva N, Muratova N, Ermatov A. Bosma ommaviy axborot vositalari tahririyatlari uchun qo‘llanma. Toshkent: 2008.- 280 b.
6. Tulepov A. Internetga in qurgan “o‘rgimchaklar”- T.: “Movarounnahr”, 2014. -88 b.
7. Tulepov A. IShID fitnasi. T.: Movarounnahr, 2015. – 98 b.
8. Tulepov A. Internetdagi tahdidlardan himoya. T.: Movarounnahr, 2015.-480 b.
9. Qudratxo‘jaev Sh. Internet: tarixi, tuzilishi, texnik xavfsizlik. T.: O‘zbekiston. 2011. -180 b.

10. Qorayev Sh. Mustaqillik mohiyati.T.:G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.-140 b.
11. Qorayev Sh. Dunyoni ma'rifat qutqaradi. Qarshi: “Qashqadaryo ko'zgusi OAV”, 2018.- 240 b.
12. Rahimov Sh. Pirmatov J. Yoshlarni axborot xurujlaridan himoya qilish masalalari. “Nishon tongi” gazetasi. №21(3773)son. 2016 yil 13 may.-B.8.
13. Hoshimov O'. “Olislarga intilgan daryo”. Toshkent: “Xalq so'zi” gazetasi. №193(3021). 2002 yil 7 sentyabr.-B.4.
14. Saidov H. Yangiliklar va reportyorlik mahorati.-T.: “TA'LIM-MEDIA”, 2023.-256 b.